

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'рни va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlarini	81
K.M.Xakimov Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlarini.....	103
H.A.Oblaqlulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
Z.X.Madaminov Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari	122
Z.A.Temirov Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

ISTE'MOL GEOGRAFIYASI FANI, UNING RIVOJLANISHI, ISTE'MOL SAVATCHASI TUSHUNCHASI VA UNI TADQIQ QILISH

НАУКА О ГЕОГРАФИИ ПОТРЕБЛЕНИЯ, ЕЁ РАЗВИТИЕ, ПОНЯТИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ КОРЗИНЫ И ЕЁ ИССЛЕДОВАНИЕ

THE SCIENCE OF CONSUMER GEOGRAPHY, ITS DEVELOPMENT, THE CONCEPT OF CONSUMER BASKET AND ITS RESEARCH

Madaminov Zafarjon Xudoyberdiyevich¹

¹Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasi mudiri, g.f.f.d (PhD)

Аннотация

Ushbu maqolada iste'mol geografiyasining paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda iste'mol savatchasi tushunchalari tahlil qilingan va tegishli xulosalar olingan. Shuningdek, iste'mol geografiyasi fanining vazifalari, iste'mol savatchasining ratsional normasini belgilash qiymatlari o'rganilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется возникновение и развитие географии потребления и понятия потребительской корзины, делаются соответствующие выводы. Также изучены задачи науки географии потребления, значения определения рациональной нормы потребительской корзины

Abstract

In this article, the emergence and development of consumer geography and the concepts of consumer basket are analyzed and appropriate conclusions are drawn. Also, the tasks of the science of consumer geography, the values of determining the rational norm of the consumer basket were studied.

Kalit so'zlar: iste'mol, iste'mol geografiyasi, iste'mol savatchasi, aholi iste'moli, madaniyat geografiyasi, oziq-ovqat xavfsizligi, sog'liqni saqlash geografiyasi

Ключевые слова: потребление, география потребления, потребительская корзина, потребление населения, культурная география, продовольственная безопасность, география здравоохранения

Key words: consumption, consumption geography, consumption basket, population consumption, cultural geography, food security, health geography

KIRISH

Jahon tajribasidan ma'lumki, inson hayoti va uning salomatligini muayyan vaqt davomida saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning eng kam to'plamini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunday ko'rsatkichlar mamlakatlarning iste'mol savatchasida aks etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 22-dekabrida Parlamentga murojaatnomasida ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarga to'xtalib, ilg'or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot darajasi uchun zarur bo'lgan daromadlarni aniqlash bo'yicha «iste'mol savatchasi» tushunchasini qonunchilikda mustahkamlash va uni amalda ta'minlash mexanizmlarini yaratish lozimligini qayd etgan edi³.

Prezident 2019-yilning 21-noyabr kuni aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat statistika qo'mitasiga xalqaro tashkilotlar ekspertlarini jalb etib, iste'mol savati va yashash minimumini hisoblash tartibi hamda iste'mol me'yorlarini ishlab chiqish vazifasini qo'ydi⁴.

Ichki iste'mol bozorini to'ydirish eng avvalo xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish bilan bog'liq. Iste'mol mollari ishlab chiqaradigan tarmoqlar majmuasi yengil va oziq-ovqat, qisman mashinasozlik sanoatini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda og'ir sanoatning bir qator tarmoqlari ham xalq iste'moli mollari tayyorlashda ishtirok etmoqda.

Har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining barqarorligi, mustahkamligi bosqichma-bosqich turli darajadagi bozorlarni o'z mahsuloti bilan to'yintirilishi, import mahsulotlarining o'rnini qoplovchi imkoniyatlarni yaratish negizida amalga oshiriladi. Xuddi shu maqsadda xalq iste'mol mollari ko'proq yetishtirish ayni muddaodir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Parlamentga murojaatnomasi (<https://uz.fundamental-economic.uz/?p=1424>)

⁴<https://www.gazeta.uz/uz/2019/11/22/social-protection/>

Iqtisodiy adabiyotlarda iste'mol mollari ishlab chiqarish muammosi ancha keng yoritilgan. SHu bilan birga, mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish masalalarini o'rganish bo'yicha to'plangan tajribani ijobiy baholagan holda shuni ta'kidlash kerakki, mazkur yirik tarmoqning barcha jihatlarini o'rganilmagan, uning ayrim qoidalari aniqlik kiritish va yanada takomillashtirishni talab qiladi. Iste'mol mollari ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishni takomillashtirishning ayrim jihatlarini, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarishda optimal samaradorlikka erishish muammolarini kompleks hal etish masalalari etarlicha ishlab chiqilmagan.

A.S.Kovalyov "iqtisodiy geografiyada yangi xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi paydo bo'ldi va bu hozirgi kunda ilmiy va uslubiy jihatdan ancha rivojlandi hamda o'z navbatida bu tarmoq yana ham rivojlanib, uning tarkibidan "madaniyat geografiyasi", "sog'liqni saqlash geografiyasi" va boshqa yo'nalishlar paydo bo'ldi" deb aytgan edi.

Iste'mol geografiyasi ham shu fanlar qatorida Yangi yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. "Iste'mol geografiyasi" atamasi 1960 yillardan boshlab ilmiy adabiyotlarda qo'llanilib kelinmoqda. 1966 yilda S.A.Kovalyov bunday ilmiy yo'nalishni shakllantirish va rivojlantirish degan fikrni ilgari surgan. "Iste'mol geografiyasi"ning turli tarmoqlari bilan A.I.Alekseev, V.A.Bezrukix, YU.N.Gladkiy, N.V.Zubarevich, I.A.Ilchenko, E.I.Kalmutskaya, M.M.Kalashnikova, T.G.Nefedova, N.A.Starikov, E.L.Faybusovich, A.D.YAKushev va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishdi. M.B.Volf, YU.D.Dmitrevskiy, V.A.Pulyarkin, V.G.Kryuchkov, M.G.Nikitina, A.M.Nosonovlarning qishloq xo'jaligi geografiyasi bilan bog'liq ilmiy ishlarida oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish muammolari tahlil qilingan. "Iste'mol geografiyasi" va unga yaqin mavzular doirasida iqtisodchi, sotsiolog, madaniyatshunos, tarixchilar ham ilmiy tadqiqotlari doirasida izlanishlar olib borishgan (S.G.Afanasev, A.N.Ilin, I.YU.Ilina, A.B.Raxmanov, L.S.Revenko, M.U.Timofeev, R.A.Yakubov). So'nggi yillarda S.Agilar-Rodriges, L. Vilyams, Dj.Germov, D.Kaplan, T.Keyl, M.Korsals, S.Li, S.Maxoni, R.Sessarini, A.Koe, Dj.D'Arms, L.Terner, D.Xarper kabi xorij olimlari tomonidan iste'mol geografiyasi yanada kengroq o'rganildi.

"Iste'mol geografiyasi" atamasiga manbalarda turlicha ta'rif keltirilgan. Jumladan, ensiklopedik lug'atlarda ham iste'mol geografiyasi"ga ta'rif berilgan. 1988-yilda chop etilgan Geografiyadan ensiklopedik lug'atda iste'mol geografiyasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

"Iste'mol geografiyasi-Aholi tomonidan iste'mol qilinadigan moddiy tovarlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyabzal va boshqa foydalanishga yaroqli buyumlar) hajmi va tuzilishidagi geografik tafovutlarni, bu farqlarning sabablarini (shu jumladan, tabiiy sharoit, milliy va mintaqaviy an'analar, aholining daromad darajasi, demografiyasi va boshqalar) o'rganadi".

Gettner iste'mol geografiyasini o'rganish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, N.N.Baranskiy geograflarni "aholi ham ishlab chiqaruvchi ham iste'molchi" ekanligini unutmastiklikka chaqirgan. U "afsuski bugungi kunda iste'mol geografiyasi muammolariga etarlicha ahamiyat berilmayapti" deya ta'kidlagan edi.

V.V.Pokshishevskiy, S.A.Kovalev, Yu.G.Saushkin, N.YA.Kovalskiy, E.B.Lopatina, O.R.Nazarevskiy, A.A.Dolininalarning ilmiy maqolalarda "iste'mol geografiyasi"ga doir ilk tadqiqotlar olib borilgan.

Iqtisodchi geograf V.V.Pokshishevskiy "inson ishlab chiqaruvchi subyekt, bir vaqtning o'zida umumiy ishlab chiqarish jarayonida iste'molchi qutbi ham shakllanadi" deb aytgan edi. Shu jarayonda iste'mol geografiyasining rivojlanish imkoniyati paydo bo'ladi Iste'mol geografiyasi bilan ilk bor tugallangan mukammal tadqiqotlar E.I.Kalmutskaya tomonidan bajarilgan.

TADQIQOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Olib borilgan tadqiqot ishning asosiy maqsadi iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasini tahlil qilish va kerakli xulosalar olishdan iborat. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun dastlab quyidagi vazifalar belgilab olindi.

-Iste'mol geografiyasi fanining aholi iste'molining hududiy jihatlarini o'rganishdagi ahamiyatini yoritib berish;

-Sotsial-iqtisodiy, tabiiy geografik, demografik va boshqa omillarning iste'mol savatchasi tarkibi va darajasiga ta'sirini o'rganish;

-Iste'molning uzoq rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini ishlab chiqish;

-Mamlakatning biror hududida aholi iste'moli darajasini aniqlash va bu ko'rsatkichlarni iste'molning nisbiy normasiga hamda mamlakatning boshqa mintaqasi bilan to'laqligicha solishtirish va tafovutlarni, mavjud muammolarni aniqlash;

Aholining iste'mol imkoniyatlari baholash, rejalashtirish va prognozlashtirish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aytish lozimki, iste'mol savatchasining ratsional normasini belgilash muhim ahamiyat kasb etib, ehtiyojning ratsional hajmini aniqlashda kishining fiziologik va ma'naviy talabi hisobga olinadi. Ilmiy jihatdan asoslangan ehtiyojning ratsional normasini belgilab olishda ehtiyojlarning o'zgarib borish tendensiyasini bilish zarur.

Iste'mol savatiga kiritiladigan maxsulotlar soniga ko'ra belgilanadi, so'ngra pulga chaqilib, qiymati aniqlanadi. Odatda, minimal iste'mol savati, Ya'ni eng zarur iste'mol belgilanadi. Iste'mol savati milliy xususiyatga ega bo'lib, muayyan mamlakatning iqtisodiy darajasi, iste'mol tarkibini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. Iste'mol savati mamlakatning iqtisodiy qudrati va aholi iste'mol xususiyatlariga qarab har bir davlatda xar xil bo'ladi. Masalan, AQSHda iste'mol savatiga 300 ta, Fransiyada 250 ta, Angliyada 699 ta, Germaniyada 475 ta, Rossiyada 156 ta maxsulot va xizmatlar kiritilgan⁵.

Aholi iste'moli uchun zarur mahsulot va buyumlar ehtiyojning keraklilik darajasiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- eng kerakli, zarur mahsulotlar;
 - ehtiyoj nisbatan kamroq mahsulotlar.
- Ular orasidan esa keyinchalik yana ajratish mumkin:
- Har kunlik yoki doimiy foydalaniladigan buyumlar;
 - Davriy foydalaniladigan buyumlar;

Aholi iste'molini o'rganish asosida nafaqat uning miqdoriy ko'rsatkichlarigagina emas, balki sifat darajasiga ham e'tibor beriladi. Aholining shaxsiy iste'molini quyidagi guruhlariga bo'lib, tahlil qilish mumkin:

1. Qisqa muddatda foydalaniladigan kundalik iste'mol mollari (oziq-ovqat maxsulotlari, ba'zi kiyimlar, uy- ro'zg'or buyumlari va boshq);
2. O'rtacha muddat davomida foydalaniladigan istemol mollari (kiyim-kechak, poyafzal, gigiena vositalari);
3. Uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol mollari (uy- joy, mebel, elektr asboblari, yengil avtomashinalar, velosipedlar, fotoapparatlar, ustki kiyim, gilam, mo'ynali kiyimlar va boshqalar).

Birinchi guruhga kiruvchi maxsulotlar tez vaqt davomida iste'mol qilinadi va jamg'arilmaydi. Ikkinchi guruh mahsulotlari esa uch yilgacha bo'lgan davrda foydalaniladi. Uchinchi guruh mahsulotlari esa uzoq vaqt davomida foydalanilib, jamg'ariladi.

Uzoq vaqt foydalaniladigan mahsulotlar xizmat ko'rsatish muddatiga qarab bo'linadi. Masalan maishiy-madaniy vositalar, uy jihozlari, televizorlar 8-10 yil muddatga mo'ljallangan bo'lsa, xolodilnik 15-20, kir yuvish mashinalari 10-15 yil, tikuv mashinalari 20-30 yil muddatga insonga xizmat qilishi mumkin.

Aholining iste'mol jarayonida hududiy farqlar mavjud bo'lib, bu jarayonni kompleks shart-sharoitlar va aniqlangan omillar, xususiyatlar asosida o'rganish zarur. Iste'mol jarayoni o'zgarishiga ma'lum bir ma'noda o'z ta'sirini o'tkazadigan tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik omillarning iqtisodiy- geografik jihatlari kompleks ravishda o'zaro aloqalarga ega. Har bir mintaqada aniqlangan iste'molning o'ziga xos xususiyatlari kompleks ravishda tarkibiy va hududiy tartibda o'z qonuniyatlari hamda tendensiyalari asosida rivojlanadi. Aholining iste'mol darajasi moddiy boyliklar va tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik omillarning kompleks ravishda o'zaro aloqadorligida shakllanadi. Iste'molning kompleksligini ilmiy asoslash, sinflashtirish, tipologiyasini ifodalash katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Jahon aholisi sonining muttasil ravishda ortib borishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va uni aholiga etkazishga bog'liq bo'lgan ehtiyoj va talab kundan kunga ortib bormoqda. SHu sababdan iste'mol tovarlari, jumladan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni geografik jihatlari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarni olib borish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'molni geografik tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishning tarmoqlar tarkibiga nazar solinsa asosan yengil va oziq-ovqat sanoati bu tarmoqning asosiy ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishning hududiy jihatlari ham o'ziga xos bo'lib, bunda hududning tabiiy sharoiti,

⁵ [https://ru.wikipedia.org/wiki/Потребительская корзина](https://ru.wikipedia.org/wiki/Потребительская_корзина)

iqtisodiy geografik omillar, aholisining demografik tarkibi va boshqa omillarning roli katta bo'lib, bu omillarning tasnifi ishlab chiqildi.

Iste'mol tushunchasi turli soha vakillari tomonidan ishlatib kelinadi. SHuningdek, geografiya fanlari tizimida yangi "iste'mol geografiyasi" fanining paydo bo'lishi bilan iste'mol tushunchasi, uning geografiyasi bilan bog'liq bo'lgan Yangi tadqiqotlarni talab etadi. SHu jarayonda iste'molga turli soha vakillarining ta'riflari, iste'mol geografiyasining geografiya fanlari tizimida tutgan o'rni aniqlandi. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligi bo'lgan e'tiborning kuchayishi jarayonida iste'mol, jumlada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning geografik jihatlarini ochib berildi va ahamiyati tahlil qilindi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'molni tadqiq etish jarayonining murakkabligi, uning hudud bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy jihatlarini tadqiq etish usullari o'ziga xosligidan kelib chiqib, qanday metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq kelishi tadqiq qilindi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Parlamentga murojaatnomasi (<https://uz.fundamental-economic.uz/?p=1424>)
2. Калмуцкая Э.И. География потребления.-Черновцы: Чернов, ун-т, 1980-94 с
3. Калмуцкая Э.И. Опыт географического изучения потребления населением. К.1974
4. Ковалев С.А. Географическое изучение населения, его потребления и общественного обслуживания, Сб "Вопросы географии".-М.:1976-156-167 с
5. Корнекова Светлана Юрьевна. Концептуальные основы географии продовольственного потребления Специальность 25.00.24 – Экономическая, социальная, политическая и рекреационная география. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора географических наук Санкт-Петербург.2018-4с
6. Мадаминов З. Х., Абдуганиев О. И. ИЗУЧЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 11-2 (90). – С. 959-962.
7. Мадаминов З. Х. УЛУЧШЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНЫХ АСПЕКТОВ БЕЗОПАСНОСТИ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ И ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ //Экономика и социум. – 2023. – №. 4-2 (107). – С. 619-623.
8. Kh M. Z. PRODUCTION AND CONSUMPTION OF GOODS OF PEOPLE'S CONSUMPTION AS AN OBJECT OF GEOGRAPHICAL RESEARCHES //Экономика и социум. – 2020. – №. 1 (68). – С. 61-63.
9. Мадаминов З. Х. ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИИ //Экономика и социум. – 2019. – №. 10 (65). – С. 485-488.
10. Мадаминов З. Х., Салиджанов С. О., Сабиров Т. С. ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ УСТРОЙСТВА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ТОВАРОВ НАРОДНОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПРИРОДА-НАСЕЛЕНИЕ-ХОЗЯЙСТВО (НА ПРИМЕРЕ КОМПЛЕКСНОЙ АГРОПРОМЫШЛЕННОСТИ) //Экономика и социум. – 2019. – №. 10 (65). – С. 481-484.
11. Трёшников А.Ф. Географический энциклопедический словарь. Понятия и термины. Гл. ред.. М., 1988, с. 59
12. <https://www.gazeta.uz/uz/2019/11/22/social-protection/> sayti
13. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Потребительская корзина](https://ru.wikipedia.org/wiki/Потребительская_корзина)